

HUQUQIY MADANIYAT HAQIDA TUSHUNCHА VA UNING AHAMYATI

*A'zamov Adhamjon Axrorjon o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

Annotatsiya: Huquqiy madaniyatning jamiyat hayotidagi roli va amalga oshirishning yo'naliishlari, huquqiy ongning amaldagi ifodasi

Kalit so'zlar: Huquq, madaniyat, huquqiy madaniyat, madaniyat, reguliyativ funksiya, satsiologik funksiya, kommunikativ funksiya, prognostik funksiya,

Huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tushunchalar bir-birini to'ldiradi va o'zaro uzviy aloqadordir. Huquqiy madaniyat – huquqiy ong va huquqiy tarbiyaning mahsuli. «Huquqiy madaniyat» tushunchasiga tavsif berishdan oldin «madaniyat» iborasining mazmun va mohiyatini tushunib olish maqsadga muvofiqdir, chunki huquqiy madaniyat «huquq» va «madaniyat» kabi tushunchalarning birlashmasi natijasida yuzaga kelgan va shakllangan. Madaniyatning umumiy ta'rifiiga nazar tashlasak, bugungi kunda ijtimoiy fanlar doirasida «madaniyat» tushunchasi turli-tuman, qaramaqarshi talqin va fikrlarga boy bo'lgan boshqa ijtimoiy hodisani topish qiyin.

Madaniyat — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalananadi.

Huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning mansabdar shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyat ikkiga bo'linadi jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan va insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko'rildi. Jamiyatning huquqiy madaniyati shaxs erkinligi va xavfsizligi, inson huquqlarini ta'minlash, uning huquqiy himoya etilishi va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin bo'lib hisoblanadi. Shaxsnинг huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi, natijada shaxs va jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo'ladi.

Huquqiy madaniyat o'z-o'zidan kelib chiqadiki bunda shaxs huquqni qanchalik bilishi va shu o'rgangan huquqini amaliyatda qo'llay olishi tushuniladi. Aniqroq aytadigan bo'lsak huquq madaniyat davlatning asosiy qismidir.

Huquqiy madaniyat amalga oshirilishida oldiga yuksak maqsadlarni qo‘yib amalga oshiriladi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun o‘z funksiyalarini belgilab oladi. Bu funksiyalar reguliyativ funksiya, satsiologik funksiya, prognostik funksiya, kommunikativ funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

Huquqiy madaniyatning reguliyativ funksiyasi demokratik huquqiy davlatni shakllantirish va adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni ta’minlovchi nazariy va tashkiliy faoliyat bilan bog‘liq. Bu funksiya umumiyligi va shaxsiy manfaatlarni insoniyat ijtimoiy rivojlanishining markaziga qo‘yish, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun muhit yaratish, unga zarur mehnat va hayot sharoitini yaratish, siyosiy erkinligini ta’minlashga yordam beradi.

Huquqiy madaniyatning sotsiologik funksiyasi shaxsning huquqiy sifatlari shakllanishi tizimi orqali o‘rganib chiqilishi mumkin. Bu jarayonga huquqiy voqelik muayyan darajada ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun, maqsadli huquqiy tarbiyaviy ishlarni olib borish, aholining huquqiy ta’limini tashkil qilish chorasini ko‘rish, ularga yuridik yordam ko‘rsatish, shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarur.

Huquqiy madaniyat kommunikativ funksiyasi. U fuqarolarning huquqiy doiradagi muloqotini ta’minlar ekan, shu muloqot orqali mavjud bo‘ladi va ta’sir etadi. Bu yerda fuqarolarning faqat huquqiy harakat doirasidagi bevosita muloqoti, shuningdek, bizga shaxsan notanish bo‘lgan, bizdan makon va zamonda ajralib turgan tengdoshlarimiz, o‘tmish avlodlarimiz bilan bevosita «muloqoti» nazarda tutilmoqda.

Huquqiy madaniyatning prognostik funksiyasi huquq ijodkorligi va huquqni amalga oshirish, qonunlar va huquqni mustahkamlash, fuqarolarning huquqqa mos xatti-harakati, faolligini, butun huquqiy tizim uchun xos bo‘lgan an‘analarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtida ilmiy bashorat qilish va rejalashtirishning elementlari qonunchilik faoliyatida kuchayib bormoqda. Chunki qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishni rejali ravishda amalga oshirish zarur.

Huquqiy madaniyatni bilish kuchliligi insonning o‘ziga foydali bo‘ladi chunki huquqni bilish hech qachon insonni tubsizlikka chorlamaydi." Huquq bu ehtirosli jilovlash vositasidir" deb aytgan ulug‘ allomamiz. Shuning uchun jamiyatimizda huquqiy madaniyat yuksalsa insonlarning huquqiy savodxonligini shakllanadi va oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odilqoriyev X.T. "Davlat va huquq nazariyasi" Toshkent <<Adolat>> 2018
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>